



KICHIK MAKTAB O'QUVCHILARIDA IJODIY QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH

Ilmiy rahbar: **Nabiyeva Dilfuza Temirovna**¹,
Omonova Charos G'ofur qizi²

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7874492>

ARTICLE INFO

Received: 20th April 2023

Accepted: 27th April 2023

Online: 28th April 2023

KEY WORDS

Ijodiy qobiliyat, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, o'yinli texnologiyalar, ijodkor o'qituvchi, o'quvchilar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishning nazariy asoslari hamda ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda qo'llaniladigan texnologiyalar to'g'risida so'z boradi.

KIRISH

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri har tomonlama barkamol, sog'lom, mustaqil fikr bildira oladigan hamda har bir masalaga ijodkorlik bilan yondasha oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Albatta, bunday mas'uliyatli vazifa ta'lim jarayonining faol pedagoglari zimmasiga tushadi. Chunki faol ijodkor shaxsni faqatgina kreativlik mahorati yuqori bo'lgan faol pedagoggina tarbiyalay oladi. Bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari birmuncha yuqoriroqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limning o'quvchilarda ijodiy qobiliyatning shakllanishidagi o'rni to'g'risida Boltayeva Shaxlo Toshpo'latovnaning "Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish" nomli monografiyasida shunday fikrlarni bildiradi: "Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati va fikrlashi bir muncha tez rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V.Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A.Kruteskiy, E.G'oziyev, G'. Shoumarov, O.Roziqov, B.Adizov ta'kidlashlaricha, bu davrda o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg'usi kabi jarayonlar rivojlanadi. Mazkur yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatlari bir-biridan farq qilar ekan, ularning iste'dodi ham turlicha namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining mayl va intilishlarini bilish va ijodiy faoliyatlari, iste'dodlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi" [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish to'g'risida so'z yuritishdan oldin ijodiy qobiliyatning o'zi nima ekanligi haqida tushunib olsak.

Ilmiy adabiyotlarda ijodiy qobiliyat "ijodkorlik" va "kreativlik" tushunchalari bilan bog'liq ekanligi yoritilgan. Ijodkorlik- yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish bilan natijalanadigan faoliyat turi. Kreativlik esa qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish



layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. Bundan kelib chiqadiki, ijodiy qobiliyat- bu yangicha fikrlash va yangicha dunyoqarash demakdir.

Amerikalik olim D.Veksler tavsifi bo'yicha: "Ijodiy qobiliyat shaxsga ma'lum bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" [4].

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish hamda rivojlantirish muammosi "abadiy" pedagogik muammo bo'lib o'quv jarayonining asosini, poydevorini tashkil etadi. Bu jarayon vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmay doimiy ravishda yaqin e'tibor va yanada rivojlanishni talab qiladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun avvalo ta'lim sohasini tubdan isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin ta'lim sohasini isloh qilmas ekanmiz, ta'lim tizimini kreativlik asosida qurmas ekanmiz bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmish ijodkor shaxsni tarbiyalay olmaymiz.

Bu borada yurtimizda ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini yangilash ishlari keng olib borilmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonini keng ko'lamda ijodkorlik darsliklari hamda ijodiy faoliyat bilan olib borilayotganligi bejizga emas. Mazkur jarayonni esa ijodkor pedagog - o'qituvchigina bajara oladi. Shu sababdan ham ta'lim jarayonida ijodkor faol pedagog-o'qituvchiga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari bizning ta'lim tizimimizda ko'plab bo'lib, ulardan biri ta'limda turli xil innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, shuningdek, o'yinli texnologiyalardan foydalanish bo'lib hisoblanadi. Mazkur texnologiyalardan foydalanish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Misol tariqasida interfaol ta'lim metodlaridan "Aqliy hujum", "Case-study", "Baliq skeleti", "Nilufar guli", "Debat" metodi, "Besh minutli esse", "Insert" grafik organayzeri kabi metodlar ijodiy qobiliyatni shakllantiruvchi asosiy metodlardir. Bundan tashqari kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirishda o'yinli texnologiyalardan "So'z tuzish", "Sirli kataklar", "Bilag'on boshliqlar", "Zarur harfni topib qo'y", "Sehrli kvadratlar", "So'zdan so'z tuz" o'yinlari muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir shaxsning ijodkorlik qobiliyati maktabda shakllanadi va rivojlanadi. Zero, maktabda turlicha dunyoqarashga hamda qobiliyatga ega bolalar ta'lim oladilar va bolalardagi aynan mana shu turlicha dunyoqarash va qobiliyatlarni bir tizimga solish ijodkor faol o'qituvchining zimmasidagi asosiy vazifasidir. Bolalardagi ijodiy qobiliyatning har qanday boshlang'ich kurtaklari ta'lim-tarbiyadan tashqarida kamol topa olmaydi. Shu boisdan kichik maktab yoshi davri o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi eng asosiy davr hisoblanadi va kichik maktab yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri desak adashmagan bo'lamiz.



References:

1. Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent-2008
2. O'X.Muxammedov, M.X.Usmonboyeva, S.S.Rustamov. "Ta'limni tashkil zamonaviy interfaol metodlar" (o'quv-uslubiy qo'llanma), Toshkent-2016.
3. Boltayeva Shaxlo Toshpo'latovna. "Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish" (monografiya), Navoiy-2012.
4. G'iyosova Shaxnoza Abdurafiqovna. "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishning didaktik asoslari" (dissertatsiya), Samarqand-2008.